

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"DORI-DARMON" AK

Объявление

"DORI-DARMON" AKSIYADORLIK KOMPANIYASI

АУДИТОРЛИК ТАШКИЛОТЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

AUDITORLIK TASHKILOTLARI DIQQATIGA!

“Dori-Darmon” AKning 2023 yil moliya-xo‘jalik faoliyatini milliy hamda xalqaro standartlarga muvofiq audit tekshiruvidan o‘tkazilishi bo‘yicha tashqi auditorlik tashkilotini tanlash uchun TANLOV e‘lon qiladi.

Tanlovda ishtirok etadigan auditorlik tashkilotlari:

- o‘z faoliyatini “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq olib borishi;
- auditorlik faoliyatini kamida 5 yil davomida amalga oshirib kelishi;
- tashkilot shtatidagi xodimlar tarkibida asosiy ish joyi hisoblangan 5 yildan ortiq davrda Moliya vazirligi tomonidan umumiy audit sohasida berilgan malaka sertifikatlariga ega hamda 5 yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan kamida 4 nafar auditorlar, shuningdek kamida 2ta BHXSga muvofiq xalqaro sertifikatlariga ega auditorlar mavjudligi;
- kamida 3 000 000 000 (bir milliard) so‘m miqdorida auditorning kasbiy javobgarligi sug‘urtasining mavjudligi;
- oxirgi 3-yil davomida BHXS sohasida 5 ta muvafaqqiyatli loyihalar (moliyaviy hisobotlarni BHMSdan BHXSga o‘tkazish, BHXSga muvofiq moliyaviy hisobot auditi) amalga oshirilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjudligi;
- oxirgi 3 yil davomida (2019-2021) O‘zbekiston Respublikasi auditorlik tashkilotlarining reytingining birinchi beshligidan past bo‘lmagan o‘rin egallashi.

Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar:

- Ishtirokchining tanlovda ishtirok etish bo‘yicha taklifi va auditorlik tekshiruv o‘tkazishining dastlabki qiymati;
- Auditorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi;
- Auditorlik kompaniyasi to‘g‘risida ma‘lumot;
- Auditorlik kompaniyaning eng yirik mijzlari ro‘yhati va sohada tegishli ish tajribasi;
- Auditorning malaka sertifikatlari va boshqa xalqaro sertifikatlar nusxalari;
- Sug‘urta polisining nusxasi;

**Tanlovda qatnashish uchun tijorat takliflari yopiq muhrlangan konvertda
01.04.2023 yilgacha qabul qilinadi.**

Auditorlik tashkilotini tanlash masalasi kompaniyaning kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilingan nomzodlar asosida aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

Takliflar yuborish uchun manzil:

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Chorsu maydoni, 21-uy, "Dori-Darmon" AK ma'muriy binosi.

Tanlov bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar uchun:

Telefon: 71 281-41-74

www.doridarmon.uz (<http://www.doridarmon.uz/>)

Belgilangan muddatlardan keyin yuborilgan tijorat takliflari tanlovda ishtirok etmaydi. "Dori-Darmon" AK ma'muriyati

16.03.2023

Источник: <https://openinfo.uz/en/announce/15137/>

Дата: 03.06.2023